

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI

KASBIY TA’LIM KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Fizika-matematika fakulteti
dekani_____ **prof.O.Tashatov**
“ ____ ” _____ **2015 yil**

“Himoyaga ruxsat etildi”
Kasbiy ta’lim kafedrası
mudiri dots.A.A.Vardiyashvili
_____ **“ ____ ”** _____ **2015 yil**

5111000 - Kasb ta’limi (5320100 – Yengil sanoat buyumlari kontruksiyasini
ishlash texnologiyasi) ta’lim yo‘nalishi talabasi

Saydullayeva Muhayyo Husan qizining

**“Ayollar zamonaviy liboslari uchun quroq turlarini qo‘llash va
tayyorlash texnologiyasi” mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:_____ **katta o‘qit. Sh.Azimova**

Qarshi-2015 yil

Mundarija

Kirish	3
 I.bob Quroq turlari va ularning maishiy hayotdagi o'rne	
1.1. Quroqlar tarixi va unda milliy an'analarning ifodalanishi	6
1.2. Quroq turlari va ularning ramziy ma'nolari.....	12
 II bob. Ayollar liboslarida quroq turlarini qo'llash	
2.1. Quroqlarni tayyorlash texnologiyasi	27
2.2 Ayollar zamonaviy liboslarida quroq turlarini qo'llashning o'ziga xos hususiyatlari.....	60
 III bob. Ayollar trikotaj kiyimlarida andozalar orasidan chiqqan chiqindilardan quroq sifatida foyalanish texnologiyasi	
3.1 Trikotaj matosidan ayollar kiyimlari uchun zamonaviy moda yo'nalishi.....	69
3.2 Ayollar trikotaj kiyimlarida andozalar orasidan chiqqan chiqindilardan quroq sifatida foydalanish.....	71
3.4 Ayollar trikotaj kiyimlarini yaratishda chiqindilardan quroq sifatida foydalanish samaradorligi hisobi va tahlili.....	79
 Xulosa	81
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	83
Ilovalar	85

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini, kelajagini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, milliy va hayotiy qadriyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yosh avlodga xalqimizning o'tmishi, tarixidan darak beradigan azaliy qadriyatlari, urf-odatlarini qayta tiklash va ularni zamonaviy hayotga uyg'unlashtirish ishlariga alohida ahamiyat qaratildi.

Ma'lumki, o'zbek amaliy san'ati ko'p asrlik tarixga ega. Amaliy san'at durdonalaridan hisoblangan kashtachilik, zardo'zchilik, quroqchilikning qadimdan rivojlanib kelayotgan o'z an'analari va badiiy uslublari bor.

Hozirda nafaqat xalqimizni, balki jahondagi ko'plab mamlakatlar xalqlarini o'zining go'zalligi, serjiloligi, milliyligi bilan hayratga solgan kashtachilik, quroqchilik va zardo'zi mahsulotlari o'zbek amaliy san'atining o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, quroq - bu bitta buyumda rangi va fakturasi turlicha bo'lgan gazlama qoldiqlarini birlashtirish usulidir.

Qadimdan yurtimiz chevarlari tomonidan quroqlarning turli xil shakllari yaratilgan va ularni qo'llab kundalik hayotda ishlatish uchun ajoyib buyumlar tikilgan.

Quroq tikish san'ati xalqimizning nafaqat estetik didi, balki isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydigan, tejamkor va san'atga oshno qalb egasi ekanligidan ham dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, xalqimiz yaratgan har bir quroq san'ati asari namunalaridagi belgilar, bezaklar va ramzlar so'zlaydi. Chunki, san'at namunalarining hech bir qismi shunchaki emas, ulardagi har bir detal va ko'rinish xalqning turmush tarzi, orzu umidlari va an'alarini o'zida aks ettiradi.

So'nggi paytlarda jahonning eng mashhur dizaynerlari faoliyatini kuzatar ekanmiz, ayollar liboslarida quroq uslubidan foydalanilgan kompozitsiyalarni uchratamiz. Bunga sabab, tanlangan quroq elementlari nafaqat kiyimni bezaydi,

balki iste'molchida boshqa kiyimlarda uchramaydigan ma'lum ma'nodagi serjilolik, vazminlik, sokinlik, yoki yuqori kayfiyat bag'ishlaydi¹.

Ikkinchi tomondan, kiyimlarda quroq elementlarining qo'llanilishi, ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga imkon yaratadi. Tikuv-trikotaj korxonalari oldida iste'molchilarni zamonaviy moda yo'nalishidagi sifatli, bejirim, milliylikni zamonaviylik bilan uyg'unlashgan fasondagi assortimentlarini tayyorlash dolzarb vazifalardan hisoblansa, tikuvchilik buyumlarini tayyorlash jarayonida andazalarni joylashtirishda ular orasidagi chiqindilar miqdorini kamaytirish doimiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki, kiyimga gazlama sarfida chiqindilar miqdorining to'qimachilik gazlamalarida 0,8% va trikotaj matosida 1,4% ni tashkil etishi, korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, trikotaj korxonalarida undan tayyorlanadigan assortimentlarning kamligi, trikotaj matosining qat'iy shaklga ega emasligi, cho'ziluvchanligi, shu sababli mayda detallardan foydalanish salmog'ining kamligi hamda ko'proq yoqasiz, chontaksiz, mayda detallarsiz kiyimlarning tayyorlashi kabi jihatlar trikotaj kiyimlarini tayyorlashda andozalar orasidan chiqadigan chiqindilar miqdorining ko'p bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu muammolarni hal etishda andozalar orasidan chiqadigan chiqindilardan quroq sifatida foydalanish yaxshi samara beradi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, andozalar orasidan chiqadigan chiqindilarni kamaytirish muammosi bo'yicha M.Sh.Jabborova, SH.G.Madjidova, M.Abdullayeva kabi mamlakatimizning yetakchi olimlari ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Tadqiqotchi Z.A. Abdullaxo'jayevaning "Turli assortimentdagi tikuv buyumlarini tayyorlashda quroqlardan foydalanish texnologiyasi" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida ham shu kabi muammolar o'rganilgan.

¹ «2008-20012 yillarda yengil sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollashtirish dasturi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13-noyabr 2008 yildagi PK-510 sonli qarori

Tadqiqotning maqsadi: milliy quroqchilik turlari, tikilish uslublari, ularni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish hamda ayollar liboslarida foydalanish shuningdek, ommaviy ishlab chiqarish sharoitida trikotaj matosidan tayyorlanadigan ayollar kiyimini bichish jarayonidan chiqadigan chiqindilardan quroq sifatida foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Bu maqsadni amlga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgiladik:

1. Quroq turlari va ularning maishiy hayotdagi o'rni, tarixi va turlarini o'rganish .
2. Ayollar liboslarida milliy quroq turlarini qo'llash texnologiyasini ishlab chiqish
3. Trikotaj mahsulotlarini tayyorlashda andozalar orasidan chiqadigan chiqindilarni ayollar kiyimlarida foydalanishning samarali yo'llarini ishlab chiqish va xokazolar.

Tadqiqotning ob'yekti: Qarshi shahridagi "Cotton-Road" Amerika-O'zbekiston qo'shma korxonasi trikotaj buyumlarini ishlab chiqish texnologik jarayoni.

Ishning yangiligi: Ayollar liboslarida milliy quroq turlaridan foydalanish texnologiyasi ishlab chiqildi, ishlab chiqarish korxonalarida trikotaj matosidan ayollar kiyimlarini tayyorlashda andozalar orasidan chiqadigan chiqindilardan quroq sifatida foydalanilgan yangi kiyim kolleksiyalari yaratildi, tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqilib, iqtisodiy samaradorlik asoslandi.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan tavsiyalarni tikuv-trikotaj korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarida, ayollar maishiy hayotlarida kiyim tayyorlash jarayonlarida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv ishi kirish, 3 ta bob, 7 ta paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat.

I bob. Quroq turlari va ularning maishiy hayotdagi o'рни

1.1. Quroqlar tarixi va unda milliy an'analarning ifodalanishi

Quroq deganda, tayyorlash usuli biroz oddiy yoki murakkab va shu bilan birga tejamkorlik asosida yaratilgan badiiy ijodkorlik mahsuli tushuniladi.

Quroq-bu mayda bo'laklardan ulab, to'plab bezak yaratishdir. Shu usulda yasalgan bezak, buyum ham quroq deb ataladi. Turli rang va shakldagi mayda mato parchalaridan buyum, bezak hosil qilinadi. Quroq amaliy san'at bezak elementlaridan biri hisoblanib, maishiy hayotda keng qo'llaniladi. Masalan: ko'rpa, ko'rpacha, yostiq, choyshab, so'zana, dasturxon, gilam va boshqa jihozlarni tayyorlab ajoyib san'at namunalarini yaratish mumkin. (1.1.1-rasm)



1.1.1-rasm. Quroq namunalari

O'zbek zamonaviy san'at bosqichida quroq san'atini ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchisi - an'anaviy xalq kashtachiligi bilan bog'liq bo'lib, quroqdan turmush jihozlarini bezashda foydalaniladi. Ikkinchi yo'nalish malakali rassomlar faoliyat ijodi bilan bog'liq bo'lib, quroqchilikdan ilhomlanib ajoyib kompozitsiyalar yaratishni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda har ikkala yo'nalishda ham ijodkorlar samarali faoliyat olib borib, o'z asarlarini yaratishmoqda. Jumladan, xalqimiz orasida quroq san'ati yordamida buyumlar tayyorlash odatiy hol bo'lib, mahalliy quroq ustalari ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari ushbu san'at turi yordamida liboslar yaratish yoki bezash ham urfga aylanib, yurtimiz dizaynerlari bu yo'nalishdagi kolleksiyalarini taqdim etmoqdalar.

Quroq san'atining ikkinchi yo'nalishi ham nihoyatda qiziqarli va sermashaqqat faoliyat turi bo'lib, bu yo'nalishda yaratilgan san'at asarlari zamonaviy bo'lishiga qaramasdan asrlar osha yashab kelayotgan boy madaniy me'ros bilan yo'g'rilganligi ahamiyatga molikdir. Samarqandlik rangtasvirchi rassom, grafik Toir Sharipovning ijodidan o'rin olgan san'at asarlari shular jumlasidandir. (1.1.2-rasm)



1.1.2-rasm. Toir Sharipov san'at asarlaridagi quroqlar namunalari

Har bir quroq tayyorlash jarayonida ijodkordan o'ziga xos yondoshuv, did va sabr talab etiladi. Chunki, haqiqiy quroq ushbu omillar vositasida san'at asari ko'rinishini oladi. Quroq ijodkori asarida o'zining estetik didini, shu bilan birga o'lkasining mahalliy xususiyatlarini ham namoyon etadi. Quroqlarda tabiat ko'rinishi, maishiy sahnalar, handasaviy kompozitsiyalar namoyon bo'ladi. Quroqchilik san'ati orqali xalq ijodiyotidagi qadimiy bezaklar, ramzlar, belgilar

jonlanadi. Dekorativ va tasviriy motivlar tiniq, soddajaranglaydi va ular iliq rangli matolar vositasida bajariladi.

Quroq tikish ko'p asrlik tarixga ega. Har bir millatning quroqchilik borasida o'z maktabi, uslublari mavjud.

Quroq tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu san'at – mayda yoki qiyqim mato bo'laklarini bir-biriga ulab, ro'zg'or uchun kerakli buyumlar yaratish – qadimdan jahondagi turli xalqlar orasida keng tarqalgan. Xususan, Yevropaga ushbu usul Sharqdan kirib kelgan bo'lib, pechvork nomi ostida mashhurdir. Rossiyada esa XIX asrda gazlama tikadigan fabrikalar faoliyat ko'rsata boshlagandan so'ng, sanoatda quroq tikish san'ati yo'lga qo'yilgan. Vaqt o'tishi bilan hunarmandchilikning bu turi san'at darajasiga ko'tarilgan va maishiy hayotda keng ko'lamda foydalanilgan².

O'zbekistonda quroqchilik qadimdan ma'lum bo'lib, o'ziga xos xususiyat va an'analariga boy. Bu san'at qadimiy tarixga ega, xususan, o'rta asrlarda Alisher Navoiyning "Nasomiy ul-muhabbat" devonida, Imom G'azzoliyning (U hijriy 450-505-yillar, melodiy 1058-1111-yillarda yashab o'tgan. Tus shahrida tug'ilgan.) "Kimyoi saodat" (Ruh haqiqati) hamda Husayn Vois Koshifiy (1440-yil Xurosonda tug'ilib 1505-yil vafot etgan.) asarlarida "muraqqa" (quroq to'n, janda) avliyo yoki darveshlar kiyimi sifatida eslatib o'tilgan. O'rta asr tasavvuf namoyondalari ko'pincha muraqqa yoki unga yaqin kiyimlarda tasvirlanganlar. Yuqoridagi dalillardan ko'rinib turibdiki, quroq san'ati yurtimizda XI-XII asrlarda ham mavjud bo'lib, kamida to'qqiz asrlik tarixga ega.

Ayrim adabiyotlarda mamlakatda iqtisodiy inqiroz yuzaga kelgan vaqtda ochlikdan qiynalgan xalq ro'zg'or qilish uchun quroq tikishga majbur bo'lgan deb yozilgan. Ammo, insonlarni quroq tikishga undagan asosiy kuch- bu ularning ijodkorlikka, yangilik va go'zallik yaratishga, o'z ijodiy qobiliyatini va yaratuvchanlik mahoratini yorqin tarzda ifodalashga bo'lgan intilishidir.

Qadimdan yurtimiz ayollari tomonidan quroqlarning turfa xil shakllari yaratilgan va ularni qo'llab kundalik hayotda ishlatish uchun ajoyib buyumlar

² O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi qonuni. 1993 yil

tikilgan. Hech bir o'zbek xonadoni yo'qki quroq uslubida yaratilgan amaliy san'at namunalaridan foydalanmasa. Xalqimiz xonadonlarida bunday buyumlarning bo'lishi va foydalanilishi o'ziga hos an'ana hisoblanadi. Chunki, quroq namunalarining har biri yaxshi niyat va ezgu istaklar ramzidir. Masalan, qadimdan yurtimizda har bir qiz turmushga chiqishi oldidan kelinlik sepi uchun o'z qo'llari bilan quroq san'atidan foydalangan holda buyumlar tikishi lozim bo'lgan. Dono momolarimizning hikmatiga binoan quroq qurayotgan qiz o'z baxtini jamlayotgan hisoblanib, o'sha qiz albatta baxtli bo'lar ekan. Shu bilan birgalikda quroq qurash jarayoni inson uchun ma'naviy ozuqa bo'lib, miyyani dam oldirish hususiyatiga ham ega.

Inson hayotini quroqdan qilingan to'shamaga o'xshatsak mubolag'a bo'lmaydi, chunki baxtli, yorug' kunlar, payti kelsa, yomon, qora kunlar bilan ixtiyorsiz almashadi. Shuning uchun, quroq namunalarida iloji boricha qora rangli gazlamalar kamroq tanlanadi.

Bugungi kungacha chevarlarimiz tomonidan quroqning juda ko'p turlari yaratilgan. O'zbekistonda har bir viloyatning o'ziga xos quroq tikish usullari mavjud. Jumladan, "Qatlama quroq", "Ko'z", "Oq kush", "Turna", "Tegirmon", "Tirnoq", "Qudug" kabi tikish usullaridan foydalaniladilar va ular o'ziga xos ramziylilikka ega.

Hozir ham yurtimizning deyarli har bir xonadonida quroq san'ati yordamida tayyorlangan buyumlar mavjuddir. Ayniqsa, kelinlarning kelinlik seplarida albatta bunday buyumlar bo'lishi urf hisoblanadi. Bu ramziy ma'noda yosh kelin-kuyovlar turmushi to'kin - sochin bo'lib, farzandlari-yu avlodlari ko'p bo'lsin degan ma'noni anglatadi.

Quroqlarning barchasi shakli, bezaklariga ko'ra o'ziga hos bo'lgan ma'no, mazmunga ega bo'lsada, aslida ular barchasining tub negizida xalqimizga xos bo'lgan yagona ezgu- maqsad yotadi, u ham bo'lsa momolarimiz ta'biri bilan aytganda, "yurtimiz insonlari ulashib, qurashib, farzandlari esa bir- birini quvlab yursin". Demak, quroq yordamida yaratilgan amaliy san'at namunalari shunchaki

buyum emas, balki xalqimiz ezgu maqsad va tilaklarining ramziy belgisi ham bo'lib xizmat qiladi³.

Hozirda quroq tikish san'atini umumbashariy desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, ushbu san'at turi yordamida yaratilgan buyumlar ko'plab millatlar maishiy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi va bu san'at turi quroq ijodkorining iqtidorini namoyon etadi. Bu san'at turi orqali barcha xalqlar madaniyatida umumiy jihat mavjud ekanligini ko'rish va tahlil qilish mumkin. Jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari bilan bir qatorda Yevropa mamlakatlari hamda Rossiya federatsiyasi aholisi bu borada yetakchilik qiladi.

Shuningdek, quroq tikish san'atini o'rganish o'zbek xalq hunarmandchiligi maktablarining o'ziga xosligi, hududlar an'analari va kasanachi ustalar didini yaxshi bilishga, uni alohida badiiy jarayon sifatida zamonaviy xalq amaliy san'ati taraqqiyotida tutgan o'рни va rivojlanishiga qo'shgan hissasini aniqlashga xizmat qiladi.

O'zbek xalq amaliy san'at tarixidan quroq tikish san'ati xalqimizning nafaqat estetik did sohibi, balki isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydigan, tejamkor va san'atga oshno qalb egasi ekanligidan ham dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, xalqimiz yaratgan har bir quroq san'ati asari namunalaridagi belgilar, bezaklar va ramzlar so'zlaydi. Chunki, san'at namunalarining hech bir qismi shunchaki emas, ulardagi har bir detal va ko'rinish xalq turmush tarzi, orzu umidlari va an'alarini o'zida aks ettiradi.

Quroq tikish san'ati orqali buyumlar tayyorlash quyidagi ijobiy hususiyatlarni o'zida mujassam etadi:

- gazlama tejalishiga olib keladi.
- ko'p miqdorda chiqindi chiqishining oldini oladi.
- xom ashyo masalasi juda arzon.
- yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi.
- bu san'at turi inson psixologiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- milliy an'alarimiz davomiyligi ta'minlanadi.

³ Кокеткин.П.П “Одежда” “Технология— техника процессы качества” Справочник М.: 2011

Gazlama bilan ishlaydigan har qanday ustada qolgan qoldiqlarni tashlamasdan, kerakli narsa uchun foydalanish ishtiyoqi tug'ilishi tabiiy.

Bu bir tomondan, ayollarga xos tejamkorlik, sarishtalilikdan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, ayollarning yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon etadi⁴.

Quroqlarning chiroyli chiqishi unda tanlangan gazlama qiyqimlarining tolaviy tarkibi, qiyqimlarning, ranglar uyg'unligi, mutanosibligi, iplarni to'g'ri tanlanishi, ishlov berish sifati hamda chevarning ijodkorlik qobiliyatiga bog'liq.

⁴ Xasanbayeva Q. K., M.Sh. Shomansurova "Kompozitsiya asoslari" T. 2009

1.2. Quroq turlari va ularning ramziy ma'nolari

Yurtimiz boy ma'daniy merosi tarixida quroqlarning juda ko'p turlari mavjud. Shu bilan birgalikda yurtimizning bir hududida uchraydigan quroq san'ati namunalari boshqa hududlarida takrorlanmasligi, har bir hududning o'ziga xos va betakror quroqchilik maktablari mavjud ekanligi ahamiyatga molikdir. Ushbu quroq namunalari o'zining murakkab yechimga, shakily ko'rinishga ega ekanligi bilan kishini hayratga soladi. Quyida bir qancha quroq turlari va quroq san'ati yordamida tayyorlangan buyum namunalari keltirilgan.

Applikatsiyali quroq

Applikatsiyali quroq- qadimiy quroq turlaridan biri bo'lib, asos mato ustida boshqa rang va turdagi, turli shaklli mato bo'laklarini mohirlik bilan qo'llagan holda yaxlit naqsh yoki shakllar hosil qilinadigan quroq turi hisoblanadi. Qadimdan yurtimiz ayollari bu quroq turidan amaliy san'atda keng foydalanishgan. Jumladan, bolalar beshiklari uchun go'zal va betakror yopinchiqlar tayyorlanib, applikatsiyalar bilan bezatilgan. Bu, momolar tili bilan aytadigan bo'lsak, "shu behikda yotadigan bolalar ulashib, qurashib, bir birini quvlashib yursin" degan ezgu niyatni o'zida mujassamlashtirgan. Shuningdek, applikatsiyali quroqdan gilam, so'zana, choynak isitgich va shu kabi boshqa buyumlat tayyorlashida ham keng foydalaniladi.



1.2.1-rasm . Applikatsiyali quroq

Gul quroq

Gul quroq - quroqning zamonaviy turlaridan biri bo'lib nafis mato bo'laklarini kvadrat shaklda kesib, qirqimlariga ishlov beriladi va asos qismi markazdan tashqi tomonga qaratib tikib chiqilishidan hosil bo'ladi. Bu quroqdan amaliy san'atda kelin- kuyovlar uchun yostiq jildlar, beshiklar uchun yopinchiqlar, choynak isitgichlar, sumkkalar va albatta liboslarda ham rang fakturalariga etibor berib qo'llanilsa chiroyli chiqadi. Shuningdek, gul quroq undan foydalanib yaratilgan buyum egalarining har doim guldek ochilib, chiroyli va ko'rkam bo'lib yursin degan ramziy ma'noni anglatadi. Quroqning bu turini tikishda har kim o'z hohishiga ko'ra turli rangli matolardan foydalanishi mumkin bo'ladi.



1.2.2-rasm. Gul quroq.

Hzizantema

Hzizantema - zamonaviy quroq turlaridan biri bo'lib, qadimiy quroq hisoblanmish tish quroqdan uslublashtirilgan holda yaratilgan. Tish quroqda uchburchak shakldagi mato bo'laklari quroq markaziy bo'lagiga qaratiladi, hrizantemada esa usha bo'laklar markazdan tashqi tomonga qaratib ketma-ket shaklda tikib chiqiladi. Quroqning bu turidan ramziy ma'noda "guldek ochilib, yashnab yursin" deya kelin-kuyovlar uchun yostiq jildlari, ko'rpa, choynak isitgichlar tikilib, shuningdek, liboslarda ham foydalanishimiz mumkin. Bunday o'zgacha uslubdagi buyumlarning ishlatilishi insonga estetik zavq berib, xush kayfiyat baxsh etadi.



1.2.3-rasm. Hzizantema.

Kashta quroq

Kashta quroq - quroqning eng qadimiy nusxalaridan biri bo'lib, mato bo'laklariga iroqi kashta turidan foydalanib turfa naqshlar tushirish yo'li bilan hosil qilinadi. Odatda kashtalar liboslar, yostiqlar, so'zanalar kabi buyumlarga tikiladi. Ammo qadimda yurtimiz ayollari quroq yordamida tikiladigan ko'rpa, ko'rpacha, yostiq kabi buyumlarga alohida san'at sifatida qarab o'z mahoratlarini namoyon qilishgan. Kashta quroq yordamida tikilgan buyumlar ko'proq qizlar tomonidan o'z kelinlik seplari uchun tikilib, ajoyib bezak vazifasini o'tagan va barchaga yosh kelinning mahoratidan darak berib turgan. Yurtimizning Qashqadaryo vohasida tikilgan kashta quroqlar o'zining turfa xil, serjilo va uzoq yillar o'tsada o'z hususiyatini yo'qotmaydigan ranglari bilan ajralib turadi. Bu ranglarning har biri amaliy bezak namunalarida o'ziga hos ma'no va mazmun kasb etadi.

Izoh: Ushbu quroq namunasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani "Katta Ko'ba" qishlog'ida yashab o'tgan mohir chevar va usta hunarmand onaxon - Qizlarsora Aliyeva (1928-1996- yillar) ijodiga mansub.



1.2.4-rasm. Kashta quroq.

Olma quroq

Olma quroq - eng qadimgi quroq turlaridan biri bo'lib, kvadrat va uchburchak shakldagi mato bo'laklarini bir biriga mahorat bilan biriktirishdan hosil bo'ladi.

Qadimda quroqning ichki kvadrati uchun qizil rangli matodan foydalanib, mato atrofiga oq rangli uchburchak shakldagi bo'laklar tikilgan va bu qizil rang olma mevasiga qiyoslangan. Tayyor quroq kompozitsiyasida qizil matolar huddi olmalar sochilib turgandek ko'rinish bergan. Shu sababli ham quroq "olma quroq" nomini olgan. Ammo, keyinchalik qizil mato o'rniga boshqa rangli matolardan ham foydalanilgan, biroq quroq nomi o'zgarishsiz qolgan. Olma quroq ramziy qut-baraka, hosildorlik belgisi hisoblangan va amaliy san'atda dasturxon, ko'rpa, ko'rpacha va boshqa buyumlar tayyorlashida keng foydalanilgan.



1.2.5-rasm. Olma quroq.

Olmali parcha quroq.

Olmali parcha quroq- quroqning qadimiy turlaridan biri bo'lib, "olma quroq" shaklini alohida kvadrat tasmalar ichida qo'llab, boshqa hil mato parchalari bilan uyg'unlik hosil qilingan holda yaratiladi. Shuningdek bu quroqda kichik mato bo'laklaridan gul hosil qilish uchun applikatsiya usulidan ham foydalanilgan. Qadimdan bu quroqda foydalanilgan "olma", "gul" shakillari ramziy ma'noda el-yurtdagi qut-baraka, hosildorlik ma'nolarini anglatgan. Quroqdagi ranglar va matolar uyg'unligi quroq yaratuvchining mahoratidan darak berib turgan va ko'rpa, dasturxon, ko'rpachalar tikishda keng foydalanilgan.

Izoh: Ushbu quroq namunasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida yashab- istiqomat qiluvchi quroqdo'z va mohir chevar Zulfiya Saydullayeva (1949-yil tug'ilgan) ijodiga mansub.



1.2.6-rasm. Olmali parcha quroq.

Parcha quroq.

Parcha quroq - quroqning qadimiy turlaridan biri. Bu yerda bezakli va bezaksiz mato parchalaridan uyg'unlik hosil qilinganligi uchun ushbu quroq parcha quroq nomini olgan. Parcha quroqning bezakli qismini hosil qilishda “qush ko'zi” nomli quroq bo'lagidan foydalanilgan. Tasvirga etibor berib qaraladigan bo'lsa, u yerdagi oq va qora mato bo'laklaridan hosil qilingan shakl qush ko'ziga qiyoslanadi. Bu shakl ramziy “ko'z tegmasin” degan ma'noni anglatadi. Quroqdagi mato parchalarini ajratib ko'rsatish uchun qora rangli tasmalardan foydalanilgan. Parcha quroq amaliy san'atda asosan ko'rpa va ko'rpachalar tayyorlashida keng qo'llanilgan.

Izoh: Ushbu quroq namunasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani “Katta Ko'ba” qishlog'ida yashab o'tgan mohir chevar va usta hunarmand onaxon - Qizlarsora Aliyeva (1928-1996- yillar) ijodiga mansub.



1.2.7-rasm. Parcha quroq.

Qamay quroq.

Qamay quroq - tasma shakldagi mato bo'laklarini ketma-ket va bir biriga parallel kvadrat shaklda tikilishidan hosil bo'ladigan quroq turi. Qadimda Qashqadaryo vohasining Qamay qishlog'ida ushbu turdagi quroq ko'p tikilganligi uchun quroq shu joy nomi bilan "Qamay quroq" deb atalgan. Etibor berib qaralsa bu yerda kichik shaklning sekinlik bilan kattalashib borishini ko'rish mumkin. Bu hol ramziy ma'noda oila baxtining sekin astalik bilan kattalashib, to'lishib borishini anglatgan. Odatda qamay quroq turli xil va rangli mato bo'laklaridan mahorat bilan tikilgan va yostiqlar, ko'rpa va ko'rpachalar tikishda keng foydalanilgan.



1.2.8-rasm. Qamay quroq.

Shaxmat quroq.

Shaxmat quroq - bir xil shakldagi kvadrat mato parchalarini bir-biriga tartib va mahorat bilan birlashtirish natijasida hosil bo'ladigan quroq turi. Albatta, bu quroqda faqat oq va qora ranglardan foydalanilmasada asos shaxmat taxtasiga qiyoslanadi. Shaxmat quroq nafaqat bizning xalqimizda balki boshqa xalqlarda ham qadimdan mavjud bo'lib, bu quroq turidan foydalanilib dasturxon, ko'rpa, so'mka shuningdek liboslar ham tikilgan. Bu quroqning tayyorlash jarayoni nisbatan oddiyroq ko'rinsada, aslida alohida mahorat va ziyraklik talab etiladi. Chunki, tayyorlanayotgan ishning muvofaqiyati ranglarni to'g'ri tanlash va o'z o'rnida foydalanishga bog'liq bo'ladi. Shaxmat quroqda yorqin ranglardan foydalanilishi kishiga quvnoqlik va jo'shqinlik kayfiyatini bersa, neytral ranglarning tanlanishi esa kishiga sokinlik tuyg'usini ulasha oladi.



1.2.9-rasm. Shaxmat quroq.

Tasmali quroq.

Tasmali quroq- zamonaviy quroq turlaridan biri bo'lib, kvadrat shakldagi mato bo'laklaridan tayyorlangan tasma va applikatsiyali bezaklardan foydalanilgan holda hosil qilinadi. "Tasmali quroq"ni o'z fantaziyamizdan kelib chiqib, turli shakl va usullarda qo'llashimiz mumkin. Tasmalardan hosil qilingan shakl yaqqol ko'rinib turishi uchun bir-biriga qarama qarshi ammo, uyg'unlasha oladigan ranglar tanlanadi. Bu quroq turidan foydalanib nafaqat go'zal va betakror buyumlar, balki liboslar uchun o'ziga hos aksessuarlar ham yaratishimiz mumkin.



1.2.10-rasm. Tasmali quroq

Tirnoqcha quroq.

Tirnoqcha quroq - kvadrat shakldagi mato qirqimlariga ishlov berish orqali hosil qilinadigan, tirnoq ko'rinishidagi bo'laklarning biriktirilib, uyg'un shaklga keltilishi orqali tayyorlanadigan quroq turi. Quroqning bu turi yordamida buyumlar yaratish tayyorlovchidan sabr va mahorat talab qiladi. Chunki quroqdagi "tirnoqcha"lar shaklining bir xil chiqishi kompozitsiya muvofaqiyatini ta'minlashi bilan birgalikda tayyorlash jarayonida o'ta aniqlik talab qiladi. Tirnoqcha quroq ramziy "bir birimiz bilan "et-u tirnoq" dek bo'laylik" degan ma'noni anglatadi. Qadimda bu quroq turidan amaliy san'atda keng foydalanilib choynak isitgich, yostiq, bosh kiyimlar uchun aksesuar va boshqa buyumlar tayyorlangan.



1.2.11-rasm. Tirnoqcha quroq.

Tish quroq.

Tish quroq - qadimda keng foydalanilgan, ammo bugungi kunga kelib unitilib ketish arafasida bo'lgan quroq turlaridan biridir. Quroqning ushbu turida mato bo'laklarini uchburchak shaklda buklab, bu shakillarni asos matoga ketma-ket tikilishi natijasida tish tasviri hosil qilinadi.

Qadimdan millatimizda “tish” suqdan, yomon ko'zlardan asrovchi tumor ramzi hisoblanilgan. Shu maqsadda, yosh bolakaylar beshiklariga, uylar ostonasiga biron bir hayvon tishi “balo qazolardan asrasin” deya ramziy ma'noda osib qo'yilgan. Tish quroq esa “ushbu quroq turi yordamida tikilgan buyumlar foydalaniladigan xonadonga “ko'z tegmasin” degan maqsadda momolarimiz, onalarimiz tomonidan o'z honadonlari va farzandlari foydalanishi uchun mahorat bilan tikilgan va amaliy san'atda hususan: ko'rpa ko'rpacha, yostiq jildlar tayyorlashda keng foydalanilgan.

Izoh: Ushbu quroq namunasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani “Katta Ko'ba” qishlog'ida yashab o'tgan mohir chevar va usta hunarmand onaxon - Qizlarsora Aliyeva (1928-1996- yillar) ijodiga mansub.



1.2.12-rasm. Tish quroq.

Turna quroq- 1

Turna quroq 1- qadimgi quroq turlaridan biri bo'lib, odatda qora va oq rangli matolar uyg'unlashuvidan hosil qilinadi Bu yerda qora rang uchib ketayotgan turnalar, oq rang musaffo osmon, quroqda qo'llanilgan boshqa xil rang matolar esa tabiatning turfa ranglari va manzaralari ramzidir. Erta bahor yoki kech kuzda turnalarning ko'kda qator-qator bo'lib uchishini barchamiz kuzatganmiz.

Qadimda momolarimiz tabiatning manashu go'zal manzarasidan ilhomlanib quroqning ushbu turini yaratishgan, va ko'p asrlar davomida o'z farzandlari (chaqaloqlar beshigi, bolalar sunnat to'ylari, yosh kelin-kuyovlar sarpolari) uchun shu turna galasi misoli ahil va hamjihat bo'lishsin degan maqsadda ko'rpa, ko'rpacha, yostiq kabi buyumlar tayyorlashgan.



1.2.13-rasm. Turna quroq-1.

Turna quroq -2

Turna quroq-2 - qadimgi “turna quroq” dan uslublashtirilgan bo’lib, asosan ikki xil rang uyg’unlikdan hosil qilinadigan quroq turi. Bu yerda ham ko’kda qator bo’lib uchib ketayotgan turnalar tasvirini ko’rishingiz mumkin. Farqli tomoni shundaki quroqda “turnalar” yashil rangda ifodalangan va yanada jozibali ko’rinish berish uchun oq rangli to’r matosidan uyg’unlik hosil qilingan. “Turna quroq 2” ni yaratish jarayonida o’z istagimizdan kelib chiqib boshqa ranglardan ham foydalanishimiz mumkin. Quroqning bu turi asosan turli buyum va liboslarda aksessuar sifatida foydalanishga mo’ljallangan.



1.2.14-rasm. Turna quroq-2.

Yulduzcha quroq.

Yulduzcha quroq - quroqning qadimiy turlaridan biri bo'lib, oq, qora va turfa rangli mato bo'laklari yordamida hosil qilinadi. Bu yerda tabiat og'ushida turib, tungi osmonda charaqlab turgan yulduzlar tasvirini ko'rishingiz mumkin. Yulduzlar-oq, tungi osmon-qora, tabiat-turfa rangli matolar yordamida hosil qilingan. Qadimdan yurtimiz ayollari "xonadon sohiblarining tole'i yulduzlar singari porloq bo'lsin va doimo charaqlab tursin" degan maqsadda ushbu qoroq turidan foydalanib, o'z oilalari, farzandlari va yaqinlari uchun ko'rpa, ko'rpacha, yostiq va dasturxon kabi buyumlar yaratishgan.

Izoh: Ushbu quroq namunasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida yashab- istiqomat qiluvchi quroqdo'z va mohir chevar Zulfiya Saydullayeva (1949-yil tug'ilgan) ijodiga mansub.



1.2.15-rasm. Yulduzcha quroq.

II bob. Ayollar liboslarida quroq turlarini qo'llash

2.1. Quroqlarni tayyorlash texnologiyasi

Quroq tikish jarayoni bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Quroq eskizini chizish
2. Gazlama qiyqimlarini tanlash.
3. Quroq tikish uchun iplar tanlash
4. Asboblar tanlash
5. Bichish usulini tanlash
- 6 Tikish usulini aniqlash va tikish

Quroqlarni tikishda ko'pincha, tabiiy gazlamalardan foydalaniladi, chunki, ular yengil bo'lib, yaxshi bukiladigan va taxlanadigan xususiyatga ega. Ammo, quroqlardan buyum tayyorlash jarayonida ularning yuvilganda kirishish xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

Ipak gazlamalar quroqlar tayyorlashda o'zlarining serjiloligi, mayinligi, ranglarining yorqinligi va jozibadorligi bilan juda qulay hisoblanadi.

Lavsan tolali gazlama qiyqimlaridan quroqlar tayyorlashda ularni tikish jarayoni qiyin kechadi, chunki bu gazlamalar tez g'ijimlanadi. Shu sababli ulardan foydalanishdan oldin albatta kraxmallab olinadi.⁵

Gazlama turiga, qalinligiga qarab, quroq tikish uchun iplar tanlanadi. Shifon, kapron, va shunga o'xshash gazlama qoldiqlaridan quroq tikishda № 60 ip yoki ipak ipdan foydalaniladi. Ip, shtapel va viskoza tolali gazlama qoldiqaridan tikiladigan quroqlarga № 50 , jun gazlama qiyqimlarini № 40 iplar yordamida tikiladi. (2.1.1-rasm)

Quroqlarni tikishda maxsus tog'nog'ich-ignalardan foydalanish qo'lda ko'klash ishlarini osonlashtiradi. Shuningdek, quroq tikishda asosan turli nomerli ignalar, qaychilar, arra shaklida kesuvchi maxsus keskichlar chizg'ichlar, maxsus kartonli shablonlar, dazmol, millimetrli va kalka qog'oz, sirkul, yumshoq qalamdan foydalaniladi (2.1.2-rasm).

⁵ Isroilova .B.G , Asadullayeva M. A. "Tikuv buyumlariga ishlov berish texnologik tartibi to'plami " T. TTYeSI 2009



2.1.1-rasm. Quroq rikishda foydalaniladigan iplar namunlari

Quroq qiyqimlari va karton shablonlarni kesish uchun oddiy kanselyariya qaychilaridan foydalansa ham bo'ladi (2.1.3-rasm). Ko'rinib qolgan keraksiz iplarni olib tashlash uchun esa o'tkir uchli mayda qaychilaridan foydalanish tavsiya etiladi. Yupqa gazlamalar qiyqimlari №80, paxtali gazlamalar № 85,90 va qalin gazlamalar № 100 ignalar yordamida tikiladi.



2.1.2-rasm. Turli keskichlar.



2.1.3-rasm. Qaychilar.

Gazlamaga rasmni o'tkazish uchun yumshoq rangli qalamlardan ham foydalaniladi. Gulli va to'q rangdagi matolarga rasm chizish uchun quruq sovunning o'tkir uchli qilib kesilgani yoki bo'rdan foydalanish tavsiya etiladi.

Quroqning sifatli chiqishi asosan qiyqimlarni to'g'ri bichib olishga bog'liq bo'ladi. Buning uchun kartonli shablonlardan foydalanish tavsiya etiladi. (2.1.4-rasm)




2.1.4-rasm. Kartonli shablon namunalari.

Quroqlarni tayyorlash jarayoni o'ziga xos mas'uliyat, ijodkorlik yondashuvini talab etadi. Biz quyida xalqimiz maishiy hayoda qo'llaydigan ayrim quroq turlarini tikish texnologiyasini tavsiya etamiz:


Applikatsiyali quroqning tayyorlash texnologiyasi.

Applikatsiyali quroq tayyorlashida turli rang va turdagi mato bo'laklaridan foydalaniladi. Bu jarayonda yaratuvchi iste'dodidan kelib chiqib matolardan istalgan shakldagi naqsh elementlarini kesib olishi va ularni tayyorlanayotdan buyumda qo'llashi mumkin. Jumladan, applikatsiyali quroqning yuqorida ko'rsatilgan turini tayyorlash uchun bo'yi 36 sm, eni 31 sm li asos mato va uni bezatish uchun bo'yi 22 sm va eni 18 sm li bitta, bo'yi 14 sm va eni 6smli to'rtta, bo'yi 15, eni 4 smli ikkita to'g'ri to'rtburchak shakldagi mato bo'laklari kerak bo'ladi (2.1.5-rasm).

Tayyorlab olgan to'g'ri to'rtburchaklarning kattasini ikki buklagan holda, qolganlarini esa qavatma-qavat taxlangan holda chetki qismlarini naqshli qilib kesib olamiz. Quroq yanada chiroyliroq chiqishi uchun bazi joylarida teshikchalar ham hosil qilinadi (2.1.6-rasm).




2.1.5-rasm . Applikatsiya asos qismi.



2.1.6-rasm. Applikatsiya qirqimlari.

Kesib olingan bo'laklarni asos matoga joylashtirib dastlab qo'l choki yordamida, so'ng mashina choki yordamida tashqi qirqimidan 0,2 sm joy qoldirilib, aylantirib tikib chiqiladi (2.1.7-rasm).



2.1.7-rasm. Applikatsiya o'rnatilishi.




2.1.8-rasm. Applikatsiyali quroq.

Bunday shaklda tayyorlanadigan applikatsiyalarni amaliy san'at namunalari va ayniqsa liboslarda keng qo'llaniladi.

Gul quroq tayyorlash texnologiyasi

Gul quroq asosan nafis mato bo'laklaridan tikilib, bunda istalgan rang turi tanlanishi mumkin. Quroqdagi gullar dastlab alohida tayyorlab olinib so'ng kerakli joyga o'rnatiladi. Bitta gul tayyorlashi uchun asos qismiga diametri 14 smli aylana shakldagi qotirma yopishtirilgan mato va ko'ndalang holatda kesib olingan, tomonlari 5 smli nafis mato bo'laklari kerak bo'ladi (2.1.9-rasm).




2.1.9-rasm Gul quroq asosi.

2.1.10-rasm. Kvadrat mato qirqimlari.


Ko'ndalang holatda kesib olingan kvadrat shakldagi mato bo'laklari qirqimiga kuydirib ishlov beriladi. Shundan so'ng, bo'lak ketma-ket ikki marta kvadratning diagonal chiziqlari bo'ylab bukiladi (2.1.10-rasm).

Bukilgan kvadratchalarning markaz qismini asos aylananing chetgi qismiga, kuydirib ishlov berilgan tashqi qirqimlari aylana markazidan tashqi tomonga yotqizilgan holatda qo'yilib ketma-ket tikib chiqiladi (2.1.11-rasm).




2.1.11-rasm. Kvadrat mato qirqimlari tikilishi.

Har bir tikilgan aylana choklarning oraliq masofasi 1.5-2 smni tashkil qilishi lozim. Yaproqlarni shu tarzda ketma-ket asos matoga qo'yib tikilishi natijasida gul shakli hosil bo'ladi (2.1.12-rasm). Hosil bo'lgan gulning markaziy qismiga bezak toshlar bilan ishlov beriladi.




2.1.12-rasm. Yakunlangan gul shakli



2.1.13-rasm. Gul quroq.

Hzirantema tayyorlash texnologiyasi


Hzirantema quroq tayyorlashida dastlab har bir gul alohida tikilib olinadi. So'ng tayyor bo'lgan gullar kerakli joyga o'rnatiladi. Bitta hrizantemani tayyorlash uchun diametri 14 smli doira shakldagi qotirma yopishtirilgan qattiq va tomonlari 5 smli kvadrat shaklidagi nafis mato bo'laklari kerak bo'ladi (2.1.14-rasm).



2.1.14-rasm. Hzirantema quroq asos qismi. 2.1.15-rasm. Kvadrat mato qirqimlari.

Kvadrat shakldagi mato bo'laklarini diagonaliga ikki marta, hosil bo'lgan shaklni markazidan yana bir marta bukkanadi (2.1.15-rasm).


Buklab tayyorlangan shakllar buklangan uchini aylana tashqi qirqimiga, ochiq qismini esa aylana markaziga qaratgan holda asos matoning chetgi qismidan markazga tomon aylantirib ketma-ket, tikib boriladi (2.1.16-rasm).



2.1.16-rasm. Buklangan mato bo'laklari tikilish jarayoni.

Tayyor hrizantema markaziga bezak beriladi. Shundan so'ng, uni kerakli joyda qo'llashimiz mumkin bo'ladi (2.1.17-rasm).

Hrizantema "yaproq"lari tikilguncha har bir aylana orasidagi masofaga etibor berilishi lozim. Chunki, aylanalar biron joyining kengayishi yoki torayishi, shakl buzilib gul markazining siljishiga olib kelishi mumkin.




2.1.17-rasm. Tayyor hrizantema.


2.1.18-rasm. Hrizantema quroq.

Kashta quroq tayyorlash texnologiyasi

Kashta quroqni yaratilish jarayonida ham dastlab, eng mukammal bo'lagini alohida tayyorlab olinib, so'ng esa boshqa bo'laklar bilan birlashtirib tikiladi. Turli rangdagi matolardan kerakli shakllarni qirqib olamiz: markaziy qism uchun tomoni 7smli 1 ta kvadrat, 4tadan uzunligi 9, 15 sm va eni 1.5 smli qora, 4 ta kashta tukish uchun uzunligi 13sm va eni 3 smli oq tasmalar, quroq atrofini o'rab turuvchi kattaroq ko'rinishdagi kashta naqshlari tikilishi uchun ixtiyoriy uzunlikda va eni 6 sm li oq tasma (2.1.19-rasm).





2.1.19-rasm. Quroq detallari



2.1.20-rasm. Kvadrat tomonlariga tikilgan tasma.

Tayyorlab olingan qirqimlarni tikish markaziy qismdan boshlanadi. Kvadrat tomonlariga 9 smli qora tasmalar tikib chiqiladi (2.1.20-rasm).

Qora tasmadan so'ng oq va uzunligi 15 smli qora tasmalar ham biriktiriladi. Shu tarzda hosil qilingan kvadratlar va buyum chetidagi oq, qora, qizil tasmalar bir-biriga tikilib tayyorlab olinadi (2.1.21-rasm).



2.1.21-rasm. Tayyor kashta quroq asosi. 2.1.22-rasm. Kashta naqshlari.


Tayyor bo'lgan buyum dazmollanadi va oq tasmalarga mahorat bilan iroqi kashta yordamida naqsh elementlari tikib chiqiladi (2.1.22-rasm). Kashtali quroqni boshqa quroq turlaridan farqli jihati shundaki, u yaratuvchida ikki barobar sabr, matonat va mahorat talab etadi.



2.1.23-rasm. Kashta quroq.


Olmalı parcha quroq tayyorlash texnologiyasi

Olmalı parcha quroq tayyorlash jarayoni boshqa quroqlarga nisbatan ancha oddiy va soddaroq hisoblanadi. Olmalı parchalar uchun tomonlari 6 smli turfa rangli, ikki tomoni 5 smli bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchak shaklidagi oq rangli, uzunligi 13 sm sariq yoki qizil rangli, 15 smli qora rangli eni 3 smli tasma, applikatsiyali gullar uchun diametri 2 sm li gulchalar shaklida kesib olingan mato bo'laklari kerak bo'ladi (2.1.24-rasm).




2.1.24-rasm. Kerakli mato bo'laklari.

Dastlab markazdagi "olmacha" tayyorlab olinadi. Buning uchun kvadrat shakldagi mato bo'lagining 4 ta qirg'imlariga oq rangli uchburchak shakldagi matolar biriktiriladi. So'ng kvadrat markasga hamda har bir uchburchak ustki qismiga gulchalar qo'yilib diagonaliga tikiladi natijada applikatsiyali bezak hosil qilinadi (2.1.25-rasm).



2.1.25-rasm. “olmachalar” tikilishi.

Hosil qilingan “olmachalar” chetgi qismlariga dastlab sariq rangli, so’ng qora rangli tasmalar tikiladi (2.1.26-rasm). Tayyor olmali quroq parchalari boshqa bo’laklar bilan biriktirilib yaxlit shaklga keltiriladi.




2.1.26-rasm Tayyor olmali parcha quroq sxemasi.



2.1.27-rasm. Olmali parcha quroq.


Parcha quroq tayyorlash texnologiyasi

Parcha quroq tayyorlash jarayonida eng avvalo qora tasmlar ichidagi qismlar taxlab olinadi. Har bir qora tasma ichidagi quroq 4 ta “qush ko’zi” deb ataladigan qism, 4 ta kichik va 1 ta katta kvadrat shakldagi qismlardan iborat. Jarayon oson kechishi uchun dastlab “qush ko’zi” larni alohida tayyorlab olinadi. Buning uchun tomonlari 6 smli 1 ta rangli, 1 ta qora va 2 ta oq kvadrat shakllar kesilib, qora kvadratni 2ta, oq kvadratlarni esa 4 ta uchburchak shaklga bo’linadi (2.1.28-rasm).





2.1.28-rasm. Kerakli mato bo’laklari.

So’ng, oq shakllarni rangli va qora shakllarga alohida-alohida tikib taxlab olib, tayyor bo’lgach bir-biri bilan biriktiriladi. Natijada “qush ko’zi” tayyor bo’ladi. Huddi shunday “qush ko’zi”dan 4 ta tayyorlab dazmollab olinadi (2.1.29-rasm).



2.1.29-rasm. Parcha quroq tikilishi


Quroq parchasining markaziga qo'yish uchun ixtiyoriy rang va turda, tomonlari 12 sm bo'lgan kvadrat shakl tayyorlanadi. Chunki, har bir tayyor "qush ko'zi" ning bo'yi 12 sm, eni 6 sm bo'ladi. Tayyor kvadratning ikki qarama-qarshi tomoniga "qush ko'zi" larni biriktirib tikib olinadi (2.1.30-rasm).



2.1.30-rasm kvadrat tomonlariga qush ko'zini biriktirish. 2.1.31-rasm. Qush ko'zi.

Qolgan ikkita "qush ko'zi" har birining ikkita tomoniga 4 ta, tomonlari 6 smli kvadratlar biriktirib, dazmollanadi (2.1.31-rasm). Tayyor bo'lgan uchta

shaklni bir biriga biriktirib tikib olinib dazmollanadi. So'ng atrofiga qora, tasma shakldagi mato biriktiriladi (2.1.32-rasm).



2.1.32-rasm. Tayyor parcha quroq.


Shu usulda taxlab olingan quroq va mato parchalarining barchasi bir-biriga tartib bilan, ketma-ket biriktirib tikib chiqiladi. Bu jarayonda parchalar soni buyum turiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek tayyor buyum qismining chet qismlariga ham "qush ko'zi" tikilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Qisimlarning birikritilish jarayonida, har bir qismlar ohiriga qora matodan ishlov beriladi. Barcha qismlar biriktirilib tayyorlab olingach buyum chetiga qora rangli magiz tikib chiqiladi.



2.1.33-rasn. Parcha quroq.




Qamay quroq tayyorlash texnologiyasi

Bu quroq tayyorlashi tikuvchidan aniqlik va etibor talab qiladi. Quroqning asos qismi uchun tomonlari 20 smli kvadrat shakldagi qotirma yopishtirilgan mato, kvadratchalar hosil qilish uchun buklangan holatda eni 3smli uzunliklari 9,15,19 smli qizil rang, 12,16 smli sariq rangdagi matolardan tayyorlangan tasmalar kerak bo'ladi (2.1.34-rasm).



2.1.34-rasm. Kerakli mato qirqimlari.

Dastlab kvadrat markazidan tomoni 5 smli kvadratcha belgilab olamiz va shu kvadrat chetgi qismlariga 9smli qizil rang tasmalarni buklangan tomonini kvadrat markaziga qaratgan holda joylashtirib tikib olinadi (2.1.35-rasm).



2.1.35-rasm. Asos matoda kvadrat

shaklni hosil qilish.


2.1.36-rasm. Tasmalarni ketma-ket

tikish jarayoni.

Undan so'ng, 12 smli sariq va 15 smli oq rangli tasmalar ham bir-birining ustiga kiyishtirilib tikib chiqiladi (2.1.36-rasm).

Tayyor shakl davomidan yana sariq va oq rangli tasmalar asos kvadrat tomonlari bo'ylab joylashtirilib tikiladi (2.1.37-rasm).

Tasmalar biriktirilish jarayonida chok ularning buklov bo'lmagan tomoni ustidan yurgiziladi. Har qaysi ketingi tasma o'zidan oldingi tasma tikilgan chokini berkitishi lozim. Tayyor quroq dazmollanib yanada go'zal ko'rinishga keladi.




2.1.37-rasm. Tayyor quroq shakli.



2.1.38-rasm. Qamay quroq.

Shaxmat quroq tayyorlash texnologiyasi

Dastlab quroqda foydalanishimiz mumkin bo'lgan ranglar aniqlab olinadi va mato tanlanadi. So'ng har bir matodan 5-7 smli kvadratchalar tayyorlab olinadi. Barcha kvadratlar shakli bir xil bo'lishi lozim. Chunki ozgina xatolikka yo'l qo'yilishi ham tayyor quroqning egriroq chiqishiga olib kelishi mumkin (2.1.39-rasm).



2.1.39-rasm. Kerakli mato qirqimlari.

Tikish jarayonini boshlashdan oldin shaxmat quroqda hosil qilinadigan shakllarning bittasini chizmasi chizib olinadi va qaysi qismida qanaqa rangdan foydalanilishi quyidagi belgilar yordamida ko'rsatilib qo'yiladi:

I – oq

V – qizil

II – qora


0 – yashil

= - sariq

< - zangori

III – ko'k

Bu belgilar tikilish jarayonida adashmaslik, chalg'imaslik va aniqlikni ta'minlaydi (2.1.40-rasm).




2.1.40-rasm. Shaklni belgilash.

Chizilgan chizmaga qarab turli rangli kvadratchalar dastlab ketma-ket tasma shaklda birlashtiriladi. So'ng har bir tasma shakldagi qismlar bir-biriga tikib chiqiladi (2.1.41-rasm).


=	II	I	<	O	V	III	=	II	I	II	=	III	V	O	<	I	II	=
II	I	<	O	V	III	=	II	I	II	I	II	=	III	V	O	<	I	II
I	<	O	V	III	=	II	I	II	=	II	I	II	=	III	V	O	<	I
<	O	V	III	=	II	I	II	=	III	=	II	I	II	=	III	V	O	<
O	V	III	=	II	I	II	=	III	V	III	=	II	I	II	=	III	V	O
V	III	=	II	I	II	=	III	V	O	V	III	=	II	I	II	=	III	V
III	=	II	I	II	=	III	V	O	<	O	V	III	=	II	I	II	=	III
=	II	I	V	=	III	V	O	<	I	<	O	V	III	=	II	I	II	=
II	I	II	=	III	V	O	<	I	=	I	<	O	V	III	=	II	I	II

2.1.41-a rasm



2.1.41- b rasm . Shaxmat quroq tikilish jarayoni.


Tayyor quroq dazmollanadi va chakka qismlariga qora mag'iz yordamida ishlov beriladi.



2.1.42-rasm. Shaxmat quroq.

Tasmali quroq tayyorlash texnologiyasi

Tasmali quroqning suratda ko'rsatilgan xilini tayyorlaymiz. Bajarish oson bo'lishi uchun bitta qismni ajratib olib, uni tayyorlash jarayoni bilan tanishamiz. Buning uchun tomonlari 14 smli 1 ta, 5 smli bir qancha kvadrat shakldagi oq va asos uchun tomonlari 16 smli qora mato bo'laklari kerak bo'ladi (2.1.43-rasm).




2.1.43-rasm Kerakli mato qirqimlari.

2.1.44-rasm. Mato bo'laklarini kesish.


Katta oq kvadratni dastlab bo'yiga, so'ng eniga ikki buklab, har buklangan holatida markazidan 5 sm kvadrat tashqi tomoniga qarata kesiladi. Natijada kvadrat ichida "+" shaklida kesik hosil bo'ladi (2.1.44-rasm).

Kichik kvadratchalarni diagonaliga ikki buklab, burchak qismidan boshlab o'raladi. Natijada tasma hosil bo'ladi (2.1.45-rasm).




2.1.45-rasm. Tasma hosil bo'lish jarayoni.

Markazidan kesilgan kvadratning kesik burchaklarini ichkariga qaratib dazmollaymiz va hosil qilingan tasmalarni ketma-ket joylashtirib qora rangdagi asos mato ustiga bostirma chok bilan tikib chiqiladi. Oq kvadratning chetgi qirqimlari ham asos matoga buklangan holda bostirib tikiladi (2.1.46-rasm).




2.1.46rasm. Tasmalar tikilishi.



2.1.47-rasm. Tasmani quroq

Tirnoqcha quroq tayyorlash texnologiyasi

Tirnoq quroq tayyorlash jarayinida quroqdan tikilishi mo'ljallangan kiyim turiga ko'ra xar-xil rang va matolardan foydalanishimiz mumkin. Suratda tirnoq quroq yordamida hosil qilingan "pista guli" shaklini ko'rishimiz mumkin. Buning uchun bizga diametri 16 smli qotirma yopishtirilgan asos mato va tomonlari 3.5 smli kvadrat shakldagi mato bo'laklari kerak bo'ladi (2.1.48-rasm).




2.1.49-rasm. Buklangan mato bo'laklari.

2.1.48-rasm. Kerakli mato bo'laklari.

Kesib taxlab olingan kvadratchalatning har birini bir uchidan diagonal chizig'igacha o'rab kelaymiz. Shundan so'ng yarmi o'ralgan kvadratchalarni taqa shaklida bukamaymiz (2.1.49-rasm).


Bukib olingan shakllarni asos aylananing chetki qismidan markazga tomon ketma-ket holatda tikib chiqiladi (2.1.50-rasm).




2.1.50-a rasm. Buklangan shakllar tikilishi.

O'rab buklangan shakllarning tikilish jarayonida etiborli bo'lish lozim. Chunki har bir "tirnoqcha" o'zidan oldingi "tirnoqcha" tikilgan chokini berkitib turishi kerak. Shundagina quroq ko'rinishi to'la to'kis va chiroyli chiqadi.

Shu tarzda bo'lakchalar aylana markazigacha tikib boriladi va markaziy qismga turli tosh yoki munchoqlar yordamida bezak beriladi.




2.1.50- b rasm. Buklangan shakllar tikilishi.



2.1.51-rasm. Tirnoqcha quroq.


Tish quroq tayyorlash texnologiyasi

Tish quroqni tayyorlashda kerakli rangdagi mato bo'laklari ajratiladi va tikilish jarayoni oson bo'lishi uchun dastlab, quroq kompozitsiyasidan qora tasma ichidagi qismlar tayyorlab olinadi. Bitta kvadrat shaklli quroq qismini taxlashimiz uchun uchun xohlagan rangdagi matodan tomonlari 6smli 1 ta kvadrat, uzunligi 12 sm va eni 3 smli 4 ta qizil, uzunligi 16 sm va eni 3 smli 4 ta qora tasmalar shuningdek tish shaklini hosil qilish uchun tomonlari 2.5 smli bir qancha 2 xil rangdagi kvadratchalar va markazdagi applikatsiyali "gul"cha uchun diametri 3smli shakllar qirqib olinadi (2.1.52-rasm).




2.1.52-rasm. Kerakli mato bo'laklari.

Kichik kvadratchalarga tish shaklini berish uchun har bir bo'lakni diagonal chizig'i bo'ylab ikki marta buklab olamiz (2.1.53-rasm).





2.1.53-rasm. Tish shaklini hosil qilish.

Tayyor bo'lgan “tish”larni katta kvadrat qirqimlariga ketma-ket qo'yib universal mashena choki yordamida tikib chiqiladi (2.1.54-rasm).



2.1.54-rasm. Bo'laklarni asosga qo'ndirish.



2.1.55-rasm. “tishlar” tikilish ketma- ketligi.

Kvadrat qirqimlariga “tish”lar o'rnatilgach 12 smli qizil tasmalar biriktiriladi va tasmalar chetgi qismiga ham boshqa rangdagi “tishlar” ketma-ket tikiladi (2.1.55-rasm).

Bo'lakning asosiy qismlari tikib bo'lingach qora tasma ham biriktiriladi (2.1.56-rasm). Tayyor bo'lgan bezakli kvadrat dazmollanadi va boshqa bo'laklar bilan tartibli biriktiriladi. Shuningdek, yaratilayotgan buyum turiga qarab, bezak sifatida quroqning “qush ko'zi” turidan ham bezak sifatida foydalanishimiz mumkin.





2.1.56-rasm. Tish quroq.

Turna quroq tayyorlash texnologiyasi

TURNA QUROQ 1



Turna quroq 1 ning tayyorlash jarayoni tikuvchidan o'ta aniqlik talab qiladi. Quroqdagi "turnalar" katta kichikligi yaratilayotgan buyum turiga bog'liq bo'ladi. Dastlab qora tasma ichidagi qismlar tayyorlab olinadi. Har bir qism uchun turli rang matodan 1 ta tomonlari 10 smli, 4ta 5 smli kvadratlar, tomonlari 5.5, 4,4 smli oq va qora to'g'ri burchakli uchburchaklar, chetgi qismi uchun uzunligi 20 sm va eni 2 smli qora tasmlar kerak bo'ladi (2.1.57-rasm).



2.1.57-rasm. Kerakli mato bo'laklari. 2.1.58-rasm. "turna"lar tikilishi.

Kesib olingan uchburchak shakldagi qirqimlardan dastlab bittadan "turna"lar hosil qilinadi. Buning uchun 1 ta qora uchburchak ikki yoniga 2 ta oq uchburchaklar tikib olinadi. Endi 4 ta shakl bir-biriga biriktiriladi (2.1.58-rasm).

Tayyorlab olingan 4 ta turnalar galasi 2 tasining ikki tomoniga 5 smli kvadrat shakldagi matolar biriktiriladi. Qolgan ikkitasi esa katta kvadratga birlashtiriladi va barcha qismlar dazmollab olinadi (2.1.59-rasm).



2.1.59-rasm. Qismlarni dazmollash

2.1.60-rasm. Qismlarni biriktirish.

Dazmollangan 3 ta qism bir-biri bilan biriktirilib chakka qismlariga qora tasmalar tikib chiqiladi va yana bir bora dazmollanadi (2.1.60-rasm). Tayyor bo'lgan qismlar boshqalari bilan biriktirilib yagona quroq kompozitsiyasiga aylanadi.



2.1.61-rasm. Turna quroq.

Turna quroq 2


“Turna quroq 2” ning tayyorlash jarayoni “turna quroq” bilan deyarli bir xil. Farqli tomoni shundaki “turna quroq 2” da quroqning markaz qismi uchun mo'ljallangan tomonlari 10 smli bitta va tomonlari 5smli to'rtta katta va kichik shaklda qirqib olingan mato bo'laklari ustiga, huddi shu shaklda to'r matosidan kesib olingan kvadrat bo'lakchalar qo'yiladi va tikilish jarayonida har ikkala qavat birgalikda qo'shib biriktirib tikiladi.



2.1.62-rasm. Turna quroq.


Yulduzcha quroq tayyorlash texnologiyasi

Yulduzchali quroq kompozitsiyasini hosil qilishda, yulduzchalar uchun oq, tungi osmon ochun qora, tabiat uchun turfa gulli va rangli matolardan foydalanamiz. Bitta yulduzchali kvadrat hosil qilish uchun tomonlari 10 smli 1 ta, tomonlari 5smli 4 ta turfa gulli matolardan qirqib olingan kvadratlar, ikki tomoni 7 smli qora, 5 smli oq to'g'ri burchakli uchburchak shakldagi mato bo'laklari va uzunligi 22 sm, eni 3 smli 4 ta qora tasmalar kerak bo'ladi (2.1.63-rasm).





2.1.63-rasm. Kerakli mato bo'laklari.

Dastlab bitta qora va ikkita oq uchburchaklarni bir-biri bilan biriktirib olinadi. Barcha qismlar biriktirilishi uchun 0.5 sm chok haqqi hisoblanadi (2.1.64-rasm).



2.1.64-rasm. Uchburchak mato bo'laklarini biriktirish.

So'ng hosil bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shakllarning ikkitasining ikki tomoniga kichik kvadratlar biriktiriladi. Qolgan ikkitasi esa katta kvadratga biriktiriladi (2.1.65-rasm).



2.1.65-rasm. Shakllarni biriktirish.

2.1.66-rasm. Tayyor “yulduzcha”


Tayyor bo'lgan qismlar bir biriga biriktirilib, chakka qismiga qora tasmalar tikiladi (2.1.66-rasm). Har bir yulduzchalar shu tarzda tayyorlab olinadi va boshqa bo'laklar bilan birlashib yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi.



2.1.67-rasm. Yulduzcha quroq.


Olma quroq tayyorlash texnologiyasi

Olma quroqni tayyorlashda ramziy ma’nodagi “olma” shakli uchun qizil rangli, “olma”larni ajratib ko’rsatish uchun qora rangli, tabiatni ifodalash uchun turli rangli mato bo’laklari kerak bo’ladi. Ushbu quroqning bir qismini tayyorlab olish uchun tanlangan matolardan tomonlari 4,5 sm bo’lgan qizil rangli, tomonlari 5 sm bo’lgan turli rangli kvadratchalar, ikki tomoni 4 sm bo’lgan 16 ta qora rangli to’g’ri burchakli uchburchaklar va uzunligi 17 sm, eni 2 smli qora tasma shakllari qirqib tayyorlab olinadi (2.1.68-rasm).





2.1.68-rasm. Kerakli mato bo’laklari.

Dastlab tomonlari 4,5 smli qizil kvadratchalar qirqimlarini uchburchak shakldagi mato bo’laklari bilan biriktirgan holda “olma” shaklini hosil qilinadi (2.1.69-rasm).




2.1.69-rasm. Shakllarni biriktirish.

Tayyor bo’lgan shakllarni tomonlari 5 smli kvadratchalar bilan biriktiriladi. Buning uchun ikkita “olma” shaklni ikki qarama-qarshi tomonlariga, yana ikkita shaklning esa o’rtasiga bitta turli rangli kvadratlar tikib chiqiladi (2.1.70-rasm).



2.1.70-rasm. Quroq tayyor qismlari. 2.1.71-rasm. Qismlarni biriktirish.

Taxlab olingan uchta bo'lak tartib bilan bir-biriga biriktiriladi va tashqi qismiga qora rangli tasmalar tikib chiqiladi (2.1.71-rasm).



2.1.72-rasm. Olma quroq.

2.2 Ayollar zamonaviy liboslarida quroq turlarini qo'llashning o'ziga xos hususiyatlari

Davr va zamon rivojlanishi shuningdek inson tafakkurining yuksalishi natijasida moda va dizayn sohasida ham misli ko'rinmagan yangiliklar yaratilib insonlar hayotiga tadbiq etilmoqda. Insoniyat tomonidan nimaiki yaratilmasin uning zahirida faqat bitta maqsad yotadi: buyum insoniyatga xizmat qilishi va uning turmush tarzining yengillashishiga yordam berishi zarur. Xususan liboslar yaratilish jarayoni asosida ham shu kabi maqsad yotadi. Ya'ni libos qulay, go'zal, estetik talabga javob beradigan hamda arzon bo'lishi lozim. Manashu talabga javob beraoladigan maxsulotlar bugungi kun bozorida muvofaqiyat qozonaoladi.

Quyida zamonaviy ayollar liboslarida quroq turlarini qo'llashning o'ziga xos hususiyatlari keltirilgan.

Quroq turlarini ayollar liboslarida qo'llashning eng muhim hususiyati bu – ayollar liboslarini milliylikka yo'g'rilishiga xarakat qilinganligidir. Chunki bugungi kun jaxon xalqlarining globallashuvi jarayonida milliy qadryat, an'ana va urf-odatlatlarni saqlab qolish va ularni yanada rivojlantirish muhim masalalardan biri. Qadimdan xalqimiz mexnatkash va tejamkor – isrofgarchilikni yomon illat deb xisoblovchi xalq bo'lgan. Shundan kelib chiqib turli mato bolaklaridan ro'zg'or uchun kerak bo'lgan buyumlarni mohirlik bilan tayyorlashgan va mexnatning bu turini san'at darajasiga ko'rishgan. Momolarning quroqchilik san'atidan foydalanib yaratgan turli buyumlari millatimiz ayollarining mexnatkash va mohir ijogkor ekanligiga dalolat beradi. Ushbu san'at turini ayollar liboslarida qo'llash esa liboslarga o'ziga xos va betakror korinish beradi.

Ko'p sonli maxsulotlar ishlab chiqaradiogan tikuvchilik korxonalaridagi muammolardan biri – matolarning ko'p foizli qismi chiqitga chiqib ketishi va isrof bo'lishidir. Bi jarayon ishlab chiqarishda ko'p mablag'ning ham istof bo'lishiga olib keladi. Bi muammoni bartaraf etish maqsadida sa'noatda mutahassislar tomonidan juda ko'p yechimlar ishlab chiqilgan. Ular:

- maxsulot ishlab chiqarishning konstruktiv yechimi, ya'ni maxsulotni asosiy qisimlarini mayda detallarga bo'lgan holda modellar yaratish. Bu ishlab chiqarishda mato tejalishiga olib keladi.

-maxsulot yaratilgandan qolgan qirqimlarni sanoatning boshqa maqsadlarida qo'llash. Masalan mebel, yumshoq o'yinchoqlar ishlab chiqarish va hokazo.

-eng maqbul yechimlardan biri - mato qirqimlarini liboslarda mohirlik bilan qo'llash.

Mato qirqimlarini ishlab chiqarish liboslarida qo'llash mablag'ning tejalishiga, minimum xom ashyo sarflab maksimum natijaga erishishga olib keladi. Bu esa sanoat korxonalarining yanada rivojlanishi va yukssalishiga asos bo'luvchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Inson tabiatan go'zallikka oshno yaratilgan. Shuning uchun ham u xar doim go'zallikka intilib yashaydi. Quroq turlarini zamonaviy ayollar liboslarida moxirlik bilan san'at asari darajasida qo'llash ushbu buyum egasi va atrofdagilarga estetik zavq va go'zallikni angllash qobilyatini kuchayishiga yordam beradi.

Ishimizda zamonaviy ayollar liboslari uchun tafsia etiladigan quroq turlari ayollar zamonaviy kuylaklarining biz tomondan ishlab chiqilgan kolleksiyalarni tavsiya etamiz:

Zamonaviy ayollar liboslari uchun tafsia etiladigan quroq turlari.

GUL QUROQNING LIBOSLARDA QO'LLANILISHI

Uslubi: Zamonaviy ayollar libosining fantaziya uslubida yaratilgan bo'lib, unda quroq turlaridan biri hisoblangan "gul quroq" dan foydalanilgan.

Mo'ljallanganligi: Libos turli bazm kechalari va marosimlarda kiyish uchun mo'ljallangan.

Libos selueti to'g'ri bichimli shaklni hosil qiladi. Gul quroqda gullar qizil rangli nafis organza matosidan tayyorlanib, asos sifatida qora rang tanlab olingan va u milliy matolarimizdan biri hisoblangan atlas matosi bilan uyg'unlashtirilgan.

Libosda foydalanilgan qizil rang kiyim jozibadorligini oshirishga yordam berib, libos egasiga ko'tarinki va jo'shqin kayfiyat baxsh etadi.

Tayyorlab olingan "gul"lar libosning old qismiga qalin tasma shaklidagi qora mato ustidan vertikal holatda joylashtirib chiqilganligi sababli, novcha qizlarga yarashadi va shu bilan birgalikda bo'ylari bir oz past va to'laroq bo'lgan qizlarni ozg'in va hushbichim bo'lib ko'rinishlari uchun yordam beradi. Shuningdek, libosning yelka qismida qora mato parchalaridan gul quroq tayyorlanish uslubidan foydalangan holda, libosga mos ko'rinishga ega bo'lgan aksessuarlar ham tayyorlab qo'llanilgan. Libosda quroqning bu turidan foydalanilganligi, gul quroq imkoniyatlarini ko'rsatish uchun yordam beradi. Shuningdek, ushbu quroq turidan foydalanib, yanada go'zal va betakror liboslar, amaliy bezak namunalarini yaratish mumkin.

Kiyimlarda bunday quroq turidan foydalanish insonda tejamkorlik, estetik go'zallik va mehnatsevarlik kabi sifatlarning yanada sayqallanishiga yordam beradi.



2.2.1-rasm. Gul quroqning liboslarda qo'llanilishi.

APPLIKATSIYALI QUROQNING AYOLLAR LIBOSIDA QO'LLANILISHI



2.2.2-rasm. Applikatsiyali quroqning libosda qo'llanilishi.

Uslubi: Zamonaviy ayollar libosining fantaziya uslubining applikatsiyali quroq bilan uyg'unlashishi.

Mo'ljallanganligi: Libos tantanali marosim, kechalarda kiyish uchun mo'ljallangan.

Bu zamonaviy ayollar kiyimida pushti va qora ranglar tanlab olingan bo'lib, libosda ularning mos ravishda uyg'unlashuvi ta'minlangan. Ayniqsa, pushti rangning asos sifatida olinganligi libosga o'ziga hos mayinlik baxsh etgan. Libosning yelka va etak qismida "ajdar" ko'rinishidagi applikatsiyalar tayyorlab yelimlab yopishtirilgan. Bu "ajdar"lar shunchaki inson hayoliy mahsuli bo'lib, inson ichki kechinmalarini ifodalaydi.

Libosda tananing beldan yuqori qismi keng, pastgi etak qismi esa trapetsiya shaklida bichilgan. Shuningdek, uning bel qismi uchun aksessuar sifatida qora rangli kamar tanlanib, etak va yelka qismlardagi "ajdar" applikatsiyasi yonlariga qora rangli bezak toshchalar sachratilgan holatda terib chiqilgan.

"Ajdar" applikatsiyasi libosga yelimlash usuli yordamida biriktirilgan.

Qadimdan yurtimizda quroqning applikatsiyali turidan foydalanib turli xil amaliy san'at namunalari yaratilgan. Jumladan: beshiklar uchun yopinchiq, yostiqlar, gilamlar va hokazo. Applikatsiyali quroqning liboslarda qo'llanishi esa ko'p ham kuzatilmagan. Ammo, aplikatsiyalarni liboslarda qo'llash yordamida libos yaratish jarayonida, juda ko'p imkoniyatlarga ega bo'lish mumkin. Jumladan, bu jarayonda mato qiyqimlaridan samarali foydalanilganligi sababli chiqindi sarfi kamaytiriladi. Shuningdek, yaratuvchining fantaziyasidan kelib chiqqan holda go'zal va betakror libos modellarini yaratish imkoniyatlari kengayadi.

HRIZANTEMA QUROQ TURINING AYOLLAR LIBOSIDA QO'LLANILISHI



2.2.3-rasm. Hrizantema quroq turini ayollar liboslarida qo'llash

Uslubi: Ushbu kiyim zamonaviy ayollar libosining romantik uslubini o'zida mujassamlashtirgan. Undagi o'ziga xos bo'lgan aksesuarlar esa o'zbek amaliy bezak turlaridan biri "tish quroq"dan uslublashtirilib hrizantema gullari shakliga keltirilgan.

Mo'ljallanganligi: Libos romantik uslubda bo'lganligi bois asosan tantanali marosim kechalari uchun mo'ljallangan.

Libos qaymoq rang matodan tikilganligi sabab, unda o'ziga hos bo'lgan ulug'vorlik aks etib turganliginni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek bu rang inson kayfiyatiga sokinlik va turg'unlik ham baxsh eta olish hususiyatiga ham ega. Libosda qo'llanilgan qora rang esa aksesuarlarning ajralib go'zalroq ko'rinishi uchun yordam beradi. Shuningdek kiyimga qo'shimcha zeb berish va libos asos matosi bilan aksesuarlar uyg'unligini ta'minlash maqsadida qora rangli belbog'dan foydalanilgan. Kiyim selueti trapetsiya shaklda olinganligi bois, etak qismi qomat bo'ylab kengroq ko'rinishga ega bo'ladi. Libosdagi hrizantemalar dastlab alohida tayyorlab olinib, so'ng libos uzunligi bo'ylab uning chap yon tomoniga qora mato ustidan joylashtirib chiqilgan.

Hrizantema shakldagi quroq turi asosan yostiq jildlar, choynak isitgich kabi buyumlar tayyorlanishida keng foydalaniladi. Hrizantemalarni ko'ylak, pidjak, palto, plash kabi kiyimlarda ham oz, ammo go'zal holatda, aksesuar sifatida qo'llashimiz mumkin.

SHAXMAT QUROQNING AYOLLAR LIBOSIDA QO'LLANILISHI

Uslubi: Zamonaviy ayollar libosining fantaziya uslubida shaxmat quroq imkoniyatlari bilan boyitilgan.

Mo'ljallanganligi: Kostyum bayram kechalari, tug'ilgan kun kabi tadbirlarda, shuningdek kundalik hayotda ham kiyilishi mumkin.

Kostyum shaxmat quroq turi yordamida tayyorlangan nimcha va minimalizim uslubidagi to'g'ri bichimli ko'ylakdan iborat.

Kostyum beldan yuqori qismi tanada erkin va kengroq holatda turuvchi, beldan pastki qismi esa qomat bo'yicha to'g'ri bichimli seluetni hosil qiladi. Kostyumda oq, qora, qizil, sariq, ko'k va yashil ranglardan foydalanilgan bo'lib, ularning

aksaryati yoqin ranglar bo'lganligi va ayniqsa asos sifatida sariq rangning tanlanganligi sababli, insonga quvnoqlik va samimiylik baxsh eta oladi. Shuningdek, turli rangdagi mato bo'laklarining mahorat bilan tartibli holatda biriktirib, tikib chiqilganligi kostyumning o'ziga hosligini ta'minlab berib, kishini zavqlantiradi.

Ushbu libos insonning his-tuyg'ulari hamda o'z individualligini namoyon etish hohishni ro'yobga chiqishiga imkon beradi. Libosni kiygan insonning kayfiyati ko'tarilib, o'ziga hos yengillikni his etadi.

Liboslarda bunday quroq turining foydalanilishi tejamkotlik bilan bir qatorda, yaratuvchining mahoratini namoyon qilib, insonga o'ziga hos estetik zavq bag'ishlaydi.

Libos uchun shaxmat quroq yaratilish jarayonida hohishga ko'ra, boshqa turli ranglar uyg'unligidan ham foydalanish



2.2.4-rasm. Shaxmat quroqning ayollar liboslarida qo'llanilishi.

TIRNOQCHA QUROQNING AYOLLAR LIBOSLARIDA QO'LLANILISHI.

Uslubi: Zamonaviy ayollar libosining romantik uslubiga uyg'unlashtirilgan.

Mo'ljallanganligi: Turli marosim, kechalar va tadbirlar uchun mo'ljallangan.

Libos yaratilishida to'q qizil va sariq ranglar tanlanib, turli bichim va shakllar hosil qilingan.

To'q qizil rang kiyimning jozibadorligini ta'minlasa, sariq rang kishi kayfiyatiga quvnoqlik olib kiradi.

Libosning selueti trapetsiya shaklda bo'lib, u yarim quyosh holatda bichib olingan etak, tana bo'ylab bichilgan old bo'lak va tirnoqcha quroqli aksessuarlar uyg'unligidan hosil qilingan.

Tirnoqcha qiroqni liboslar yaratishda o'ziga xos tarzda keng qo'llash mumkin.



2.3.5-rasm. Tirnoqcha quroqning ayollar liboslarigda qo'llanilishi.

TURNA QUROQNING AYOLLAR LIBOSLARIDA QO'LLANILISHI.

Uslubi: Zamonaviy ayollar libosining klassik uslubiga uyg'unlashtirilgan.

Mo'ljallanganligi: Libos kundalik ish kiyimi sifatida tafsiya etiladi.

Libos pidjak va yubkadan tashkil topgan. Shu sababli ham libos yubkasini nafaqat uzun, balki kalta shanel uslubidagi yubka ko'rinishida ham tayyorlash mumkin. Libos selueti to'g'ri bichimli shaklda bo'lib, libos egasining gavda tuzilishiga mos ravishda yubka etagiga trapetsiya shaklda kengayish berish ham mumkin.

Libosda asos rang sifatida och yashil rangning tanlanganligi kishi kayfiyatiga ijobiy t'sir ko'rsatib, yengillik va hotirjamlik baxsh etadi. Libosda oq rangli matodan ham foydalanilgan. Shuningdek, unga uyg'unlashgan holda turna quroq shakl elementlarida ham ushbu rang qo'llanilgan.

Turna quroqdan libosda bir yo'la ikki xil vazifada, aksessuar, shu bilan birgalikda cho'ntak sifatida ham foydalanilgan. Libosda uyg'unlik hosil qilish maqsadida turna quroqni hosil qilishda ishlatilgan to'rli matodan uning o'ng yelka qismida gul ko'rishidagi bezak berilgan.



2.3.5-rasm.
Turna quroqning
ayollar liboslarida qo'llanilishi.

III bob. Ayollar trikotaj kiyimlarida andozalar orasidan chiqqan chiqindilardan quroq sifatida foyalanish texnologiyasi

3.1 Trikotaj matosidan ayollar kiyimlari uchun zamonaviy moda yo'nalishi

Zamonaviy kiyim juda xilma-xildir, uning tuzilishi va razmerlari odam gavdasining o'lchamlari va tuzilishi, moda yo'nalishi mo'ljallanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Kostumlar– hozirgi kunda ayollar jovonida eng kerakli va qulay kiyim hisoblanadi. Uni har qanday vaziyatda turli xil taqinchoq, oyoq kiyim, bosh kiyimlari bilan boyitsa bo'ladi. 2014- yilgi kostyumlar o'zining ko'p fasonli, turli xil rang va gullari bilan odamni quvontiradi. Bu yil “Giorgio Armani” brendidan dizaynerlar karandash turdagi yubka hamda yoqa o'mizi dumaloq shaklli jaketni tavsiya qilishmoqda. Bu esa odamni anchagina ixcham va jozibali ko'rsatadi. Chanel kostyumlari esa aksincha 70- yilning modalaridan trapetsiya shakldagi yubka hamda tanaga nim yopishib turuvchi jaket, ozgina kaltalangan yengni taqdim qilishmoqda. Ranglari esa oq, sariq, binafsha bo'lishi kerak

Bundan tashqari 2015- yilning ranglar palitrasida to'q qizil, yashil, hamda to'q ko'k ranglar e'tiborga olingan. Yana kundalik kostyumlar uchun kofe va kumush ranglarni olish mumkin. Kundalik modada kostyumni to'ldirib turuvchi ingichka belbog' ayniqsa qora va oqish rangdagi, sumka, sharf, g'altak, soat va turli xildagi taqinchoqlar urfda. Oyoq kiyimlardan: o'rtacha poshnali, burni uchli tufli, hamda etiklarni qo'llash mumkin.

Trikotajdan tikiladigan kostyumlar bezak elementlaridan foydalanilgan holda yanada jozibali hisoblanadi.



3.1.1-rasm. Quroqli liboslardan namunalar.

Ayollar kuylaklari uchun trikotaj matosini qo'llash xususiyatlari

Iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda yoz mavsumiga ayollar kiyimlarini ishlab chiqarishda paxta tolali bo'lgan gazlmalardan yozda eng maqbul gazlama bu trikotaj polotnosidir. Zero, organizm to'g'ri rivojlanishi va faol harakat qilishida nafaqat kiyim, balki uni ishlab chiqarishda foydalanilgan material va furnitura katta ahamiyatga ega. Trikotaj polotnosi kiyimning uslubiga ham, yosh darajasi va vazifasi jihatdan ham to'g'ri keladi. Tanlangan polotnosi tola tarkibini 100 % dan ortig'ini paxta tolasini tashkil etganligi sababli, uning havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi ancha yuqori. Trikotaj matolarining afzalligi ularning mayinligi, ishqalanishga chidamliligi va yuqori qayishqoqligidir. Trikotaj matolardan tikilgan kiyimni kiyib yurish o'ng'ay, odam butun badanini siqmaydi, bu esa bolalar kiyimlari uchun eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ularning burmabopligi, g'ijimlanmasligi, havo o'tkazuvchanligi va gigienik xususiyatlari juda yaxshi.

Shuning bilan birga trikotaj matolarning cho'ziluvchanligi va chatlari buralgani sababli ularni bichish va tikish jarayonlari qiyinlashadi. Undan tashqari, trikotajning halqalari tikish mashinalarining ignalari bilan shikastlanib bir-biridan chiqib ketishi mumkin. Shu sababdan ham trikotaj polotnolarini tikishda ixtisoslashtirilgan maxsus mashinalardan va kichik nomerli ignalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.[8]

Ayollar kiyimlari: kuylaklari, kostyumlari, va boshqa kiyimlarni tikishda tikish uchun ham ko'ndalangiga va bo'ylamasiga to'qilgan trikotaj matolari ishlatiladi. Ayollar ko'ylagi, koftalari, maykalarini tikish uchun yumshoq va mayin paxta tolali gazlamalar, trikotaj polotnolari va hokazolar qo'llaniladi.

Quyida biz tomondan trikotaj matosidan tikish uchun ayollar kuylaklarining 3 ta modeli tavsiya etildi. Bu modellarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, kuylakning kofta qismidagi bezak materiallar ayni kuylak andozalarini joylashtirishda yoqa o'mizidan chiqqan chiqindilardan foydalangan holda bichish tavsiya etiladi.

TAKLIF MODEL №1



TAKLIF MODEL №2



TAKLIF MODEL №3



3.2 Ayollar trikotaj kiyimlarida andozalar orasidan chiqqan chiqindilardan quroq sifatida foydalanish imkoniyatlari

Bitiruv ishi ustida ishlar ekanmiz, trikotaj matosidan zamonaviy ayollar liboslarida mayday detallardan iborat modellar ustida ishlashni maqsad qilib qo'ydik. Ma'lumki, kiyimning tannarxi unga sarflanadigan gazlama va boshqa materilalar sarfiga bo'g'liq bo'ladi.

Gazlamani bichish jarayonida ko'p gazlamadan noratsional qoldiqlarini va gazlamani to'shashda gazlama chiqindilarini kamaytirish maqsadida gazlama to'plarini to'shamalarga hisoblanadi.

Gazlamalarni bichishdan oldin to'shash uchun tanlangan (bir xil enli va rangli) gazlamalar uzunliklari bilan farq qiladi. Har bir to'pni ma'lum razmer- rost uchun belgilangan norma asosida hisoblaganda gazlama oxiridan turli o'lchamdagi qoldiqlar ya'ni laxtaklar qoladi. Gazlamani kiyimga hisoblashda chiqadigan laxtaklarning miqdori har xil bo'ib, tikuvchilik tarmog'ida ularning ruxsat etilgan miqdorlari belgilangan.(3.2.1- jadval)[8]

Ruxsat etilgan samarasiz qoldiqlar normalari 3.2.1- jadval
(bichiladigan materiallar miqdoriga nisbatan, foiz hisobida)

T/r	Gazlama tuplari	Qoldiqlar me'yori, m
1.	Jun gazlamalar	0,2
2.	Sintetik tola aralashgan jun gazlamalar	0,6
3.	Ipak gazlamalar(ich kiyim, ust kiyim, astar uchun)	0,5
4.	Ip va zig'ir tola gazlamalar: a)eni 100 smgacha b)eni 100 sm dan ortiq v)astarbop yordamchi gazlamalar	0,5 0,3 0
5.	Sun'iy mo'yna	0,2
6.	Sun'iy charm	0,8
7.	Rezinalangan charmbop gazlamalar	0,6
8	Trikotaj matosi	14

Gazlamalarni turli razmer-rostga hisoblayotganda ruxsat etilgan qoldiqlar chiqishini ta'minlanishi gazlamadan samarali foydalanishga imkon beradi⁶.

Ma'lumki, tikuv-trikotaj mahsulotlarini tayyorlash jarayonida chiqadigan chiqindilar 3 turga bo'linadi:

1. Andozalar orasidan chiqindilar.
2. Gazlama to'pi oxirida chiqadigan laxtaklar
3. Nuqsonli qiyqimlar

⁶ Град.И.Н.Оргазация рационального использования материалов в швейной промышленности». М. 1986.10

**Trikotaj polotnosini bichishda chiqadigan chiqindilar
haqida ma'lumot**


№	Kiyim turi	Chiqindi turi %	
		Andozalar orasidan chiqadigan chiqindi miqdori	Nuqsonli deallar miqdori
1	Futbolklar	14	6
2	Mayka	13	5
3	Komplektlar	14	8

Bu chiqindilar asosan kiyimni bezashda ishlatiladigan bezaklar ushuni, mebel sanoatida foydalanish uchun ishlatiladi.


Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda chiqindilardan samarali foydalanish kiyimga sarflanadigan gazlama sarfini tejashning eng samarali usuli hisoblanadi. Trikotaj chiqindilaridan foydalanishning samarali usuli esa ulardan kiyimlarda quroq elementlari sifatida foydalanishdir.

Bitiruv ishining birinchi va ikkinchi boblarida quroqdan ayollar kiyimlarida foydalanish bo'yicha ma'lumotlarga suyangan holda taklif etayotgan modellar kolleksiyasida ham yoqa o'mizidan chiqadigan chiqindidan ayollar kostyumining kofta qismida foydalanishni tavsiya qildik.


1-model detal andozalari



2-model detal andozalari



3-model detal andozalari




3.3 Ayollar trikotaj kiyimlarini yaratishda chiqindilardan quroq sifatida foydalanish samaradorligi hisobi va tahlili

Oldingi bo'limdagi model andozalariga e'tibo beradigan bo'lsak, matoga andozalarni joylashtirishdan tanlagan 2 - modeli koftasiga sarflanadigan trikotaj matosi miqdori 46 smni(4232 sm) tashkil etadi. Koftaning ko'krak chizig'idan yuqori qismiga sarflanadigan mato miqdori esa 19 smni(1748 sm) tashkil etadi. Kuylakning ko'krak chizig'idan to belgacha bo'lgan qismiga mato sarfi 29 smni (2668 sm) tashkil etadi.

Biz yoqa o'mizidan chiqadigan chiqindilar shakldor bo'lgani uchun, uni koftaning ko'krakdan belgacha bo'lgan qismiga quroqlar sifatida foydalanishni tavsiya etamiz. Belgilangan soha uchun yoqa o'mizidan chiqqan chindididan 6 tasini birlashtirib tikish natijasida koftaning pastki qismini chiqindidan tayyorlash mumkin bo'ladi.

2-model andozalar joylashmasi



3.3.1- chizmada ko'rinib turganidek, kofta pastki qismiga sarflanadigan gazlama sarfi o'rniga 6 ta kuylak yoqa o'mizidan chiqadigan chiqindidan foydalansak, 1748 sm asosiy gazlama tejaladi⁷.

Uning hisobini quyidagicha keltirish mumkin: 3.2.3-jadval

Mato turi	Eni (smd a)	Mato narxi so'm (1 kg)	1 kg matodagi mato uzunligi (sm)	1 ta koftaga mato sarfi			Kofta yuqori qismiga sarflanadigan mato sarfi			Tejalgan mato		
				(sm)	kg	so'm da	sm	kg	so'm da	(sm)	kg	so'm da
Suprem	92	9200	620	46	0,240	2208	18(+1 sm tikish sarfi)=19	0,1	920	28(+1 sm tikish haqi sarfi)=29	0,2	1391

6 ta koftadan chiqadigan chiqindini bitta kuylakka ishlatish imkoni bo'lgani uchun:

6 ta koftaning old bo'lagiga ketadigan gazlama sarfi:

$6 \times 0,24 = 1,44$ kg yoki so'mda $1,44 \times 9200 = 13248$ so'm bo'lsa,

Tejaladigan mato sarfi:

$0,15 \times 9200 = 1391$ so'mni tashkil etadi.

Bu miqdorni 6 ta koftaga taqsimlasak, har bir koftaga sarflanadigan trokotaj matosi sarfi 4,5 smni, yoki 0,02 kg, demak, 817 so'mli gazlama tejaladi.

Demak matodan foydalanish unumdorligi quyidagicha bo'ladi:

Matodan foydalanish unumdorligi :

$100 - [(0,24 - 0,02) \times 100\%] / 0,24 = 100 - 91,6 = 8,4\%$ tashkil etadi

⁷ Серова Т.М., Афанасьева А.И., Илларионова Т.И., Делль Р.А. Современные формы и методы проектирования швейного производства М.: МГУДТ, 2004

Xulosa

Bitiruv malakaviy ishda belgilangan vazifalarni bajargan holda quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

1. Quroq tikish san'ati va texnologiyasi xalqning nafaqat estetik didi, balki isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydigan, tejamkorlik xususiyatlaridan dalolat berib, uning ma'naviyati, udumlari va millat o'rzu- istaklari, yashash tarzini o'zida ifoda etadi.

2. Quroqlarning bir qancha turlari bo'lib, ular ijtimoiy taraqqiyotning tegishli bosqichida insonlarning didi, hohishi va fantaziyalari, shuningdek matolardam samarali foydalanish va buyumlarga tashqi bezak darajasini shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Quroq turlarini yaratish va tayyorlash jarayoni tikuvchidan ijodkorlik, chevarlik va tikishning samarali usullari haqidagi amaliy ko'nikmalar, mahoratni talab qiladi.

4. Ayollar liboslarida quroq elementlaridan foydalanish bir qancha masalalarni yechishga yordam qiladi, xususan:

- quroq elementlari nafaqat kiyimni bezaydi, balki iste'molchida boshqa kiyimlarda uchramaydigan ma'lum ma'nodagi serjilolik, vazminlik, sokinlik, yoki yuqori kayfiyat bag'ishlaydi.
- gazlama tejalishiga olib keladi.
- ko'p miqdorda chiqindi chiqishining oldini oladi.
- xom ashyo masalasi juda arzon.
- yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi.
- bu san'at turi inson psixologiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- milliy an'analarimiz davomiyligi ta'minlanadi.

5. Ayollar kiyimlarida quroq elementlarining qo'llanilishi, ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga shuningdek, iste'molchilar uchu zamonaviy moda yo'nalishidagi sifatli, bejirim, milliylikni

zamonaviylik bilan uyg'unlashgan fasondagi assortimentlarini tayyorlashga imkon yaratadi.

6. Trikotaj buyumlarini tayyorlashda ommaviy ishlab chiqarishda andazalarni joylashtirishda ular orasidagi chiqindilar miqdorini kamaytirish muammolarini yechishga yordam beradi.

7. "Cotton-Road" qo'shma korxonasida ishlab chiqiladigan "Suprem" trikotaj matosidan biz tomondan tavsiya etiladigan modellarni tikishda andozalar orasidan chiqadigan chiqindilardan quroq sifatida foydalanish natijasida bitta koftaga sarflanadigan mato , 0,02 kg yoki 168 so'mni tashkil etadi, matodan foydalanish unumdorl 8,4% ni tashkil etdi.

Ish natijalari va tahlillardan kelib chiqib quyidagi tavsiylarni taklif etamiz:

- trikotaj matosidan ayollar kiyimlari modellarini yaratishda mato orasidan chiqadigan chiqindilarning o'lchami va shaklini e'tiborga olish lozim;
- yaratilayotgan modellarda kiyimga o'ziga xoslik, jozibadorlik berish hamda mato sarfini tejash maqsadida iloji boricha mayda detallardan foydalanish;

Foydalanilgan adabiyotlar:

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlari Mahkamasi qarorlari, Prezident farmonlari va asarlari.

1. O'zbekiston Respublikasining “Korxonalar to'g'risida”gi qonuni. 1993 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi qonuni. 2012 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ”Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” Farmoni// Xalq so'zi, 2005 , 15 iyun.
4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent, «O'zbekiston», 1995 yil.
5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya
6. «2008-2012 yillarda yengil sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollashtirish dasturi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13-noyabr 2008 yildagi PK-510 sonli qarori.

II. Maxsus adabiyotlar.

7. Isroilova .B.G , Asadullayeva M. A. “Tikuv buyumlariga ishlov berish texnologik tartibi to'plami ” T. TTYeSI 2009
8. Kamilova. X.X. N.K. Hamroyeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” T.:2003
9. Каримова О.И. “Проектирование швейных изделий” Ташкент. 1981
10. Кокеткин.П.П Кочегура Т.Н и другие. “Промышленная технология одежды” Справочник , М.: 1988
11. Кокеткин.П.П “Одежда” “Технология– техника процессы качества” Справочник М.: 2011
12. Litvinova I.N, Shaxova .A “Ayollar ust kiyimini tikish ”, T.: O'qituvchi 1997
13. Ochilov T va boshqalar. Gazlamashunoslik. Toshkent. O'qituvchi 2002

14. Пожидаев И.и др. Материалы для одежды. Москва. Легкая индустрия 1997
15. Xasanbayeva Q. K., M.Sh. Shomansurova “Kompozitsiya asoslari” T. 2009
16. Гусева А.А « Общая технология трикотажного производства». Изд: легкая промышленность и бытовые обслуживание» Москва 1987
17. Град.И.Н.Оргазация рационального использования материалов в швейной промышленности». М. 1986.10
18. Mahmudov E.H “Korxona iqtisodiyoti” T. O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti , 2004 y
19. G’ulomov S.S “Tadbirkorlik va kichik biznes” T. “Sharq” 2002
20. Пугачевская С.М. Справочник по нормированию материалов в швейной промышленности. -М., 1979
21. Першина Л. Ф. , Петрова С.В. Технология швейного производства.- М.: Легпромбытиздат, 1991
22. Серова Т.М., Афанасьева А.И., Илларионова Т.И., Делль Р.А. Современные формы и методы проектирования швейного производства М.: МГУДТ, 2004
23. Moda jurnallari

Internet ma'lumotlari.

- 1 www.Ziyo.net
2. WWW.google.ru
3. www.moda.ru
4. www.referat.ru.
5. www.textil-press.ru
6. www.fatex.ru

ILOVALAR